XXI ASRDAGI URUSHLARNING DINIY ESXATALOGIK TAHLILI.

Xamraliyev Ozodbek
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 4-bosqich talabasi
Ozodbekaliyev03@gmail.com
Ilmiy rahbar: s.f.f.d. J.Sobirov

Kalit so‘zlar: mafkura, ideologiya, e’tiqod, siyosiy g‘oya, siyosiy tizim, jamiyat, dunyoqarash, siyosiy hokimiyat, legitimatsiya, esxatalogiya, din, ravin, mahdiy, katexon, siyosiy jarayonlar, jamiyat taraqqiyoti, siyosiy nazariya, siyosiy mafkura, siyosiy institutlar.

Annotatsiya: Esxatologik qarashlar deyarli barcha yirik diniy tizimlarda, xususan, islom, nasroniylik va yahudiylikda muhim o‘rin tutadi hamda ular orqali insoniyat taqdiri, yaxshilik va yovuzlik o‘rtasidagi kurashning yakuniy natijasi talqin etiladi.

Zamonaviy ilmiy yondashuvda esxatologiya nafaqat diniy e’tiqodlar doirasida, balki siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni tahlil qilishda ham muhim nazariy vosita sifatida qaraladi. Ayniqsa, XXI asrda global muammolar, urushlar, ekologik inqirozlar, pandemiyalar va geosiyosiy ziddiyatlarning kuchayishi fonida esxatologik tasavvurlar insonlarning kollektiv ongiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa ayrim hollarda siyosiy qarorlar, davlat mafkurasi va xalqaro munosabatlarda diniy-narrativ omillarning bilvosita rolini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, esxatologiyani faqat diniy bashoratlar tizimi sifatida emas, balki insoniyatning kelajak haqidagi tasavvurlari, xavf va umidlarining aks-sadosi sifatida

ham talqin qilish mumkin. U murakkab geosiyosiy jarayonlarni anglashda qo‘shimcha analitik qatlam yaratadi va zamonaviy urushlarning mafkuraviy asoslarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Mafkura jamiyat hayoti va siyosiy jarayonlarni tushunishda muhim nazariy tushunchalardan biri hisoblanadi. U insonlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy qarashlarini shakllantiruvchi g‘oyalar, e’tiqodlar hamda qarashlar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Mafkura nafaqat ijtimoiy ongni yo‘naltiruvchi omil, balki jamiyat taraqqiyoti, siyosiy tizimlarning shakllanishi va davlat boshqaruvi jarayonlarida ham muhim rol o‘ynaydi. Turli tarixiy davrlarda mafkura jamiyatni birlashtirish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va umumiy maqsadlar sari safarbar etish vositasi sifatida xizmat qilgan.

Kirish

Urushlar faqat geostrategik va moliyaviy manfaatlar uchun emas ko‘p xollarda mafkuraviy va diniy sabablardan ham kelib chiqib sodir bo‘ladi. Asrlar davomida cho‘zilgan salib yurishlari bunga misol bo‘la oladi dastlab diniy-mafkuraviy sabablar bilan boshlangan urush keyinchalik pragmatik asoslarini topdi. Lekin asos diniy asos edi.

Hozirgi kunda yildan yilga dunyodagi urushlar soni ko‘paymoqda, faqat urushlar emas balki boshqa muammolar ham jiddiylashmoqda, masalan iqlim isishi, global pandemiyalar, globallashuv muammolari, ocharchilik, qurg’oqchilik kabi global muammolar hozirgi kunda jiddiy asosiy muammolarga aylandi. Bularning barchasi insonlarni va ekspertlarni dunyoning tugashi ya’ni oxirzamon haqidagi dinlar va qarashlarni o‘rganishga va hozirgi voqealar bilan o‘xshashliklarni topishga undamoqda va shu sababli ham esxatalogiya muhim fanga aylanmoqda.

Ibrohimiy dinlarda esa dunyo tugashi va esxatalogiya bo‘yicha bir biriga

bog'langan bir-biridan farq qiluvchi nuqtalar mavjud. Hozirgi kundagi AQSh-Isroil va Eron urushi ham mana shu esxatalogiyaning bir qismi sifatida ko'riladi.

Esxatologiya aslida insoniyat kelajagini bashorat qilishdan iborat yani tarixning oxirida nima bo'ladi buni tushunish esa shunga tayyorgarlik ko'rishga imkon beradi. Turli dinlarda turlicha qarashlar bor va yaxshilab qaralsa ushbu dinlar bir biri bilan ushbu nazariyalar orqali muloqot qilayotganini ko'rishimiz mumkin.

Dinlarda bir biriga qarshi chiqadigan joylari ham bor, lekin bir-birini tushuntiradigan va bir qator oxshashliklar ham bor. Masalan Haloskor yo'lboshchi kelishi 3 ta asosiy dinda bor bular: Islom, yahudiylik va nasroniylikda, lekin xaloskorning kimligi har xil. Yahudiylikda- Masih, Nasroniylikda- Iso, Islomda- Mahdi va Iso. Bu sohada dinlar bir biriga qarshi chiqishligi aytib o'tilgan yahudiylikdagi Masih islom dini uchun dushman "dajjol" deb talqin qilinadi va bu dinlar o'rtasida ulkan konflikt yuzaga kelishi aytiladi.

Yahudiylik diniga ko'ra 2 xil paytda Masih kelishi aytiladi yoki yahudiylar juda ham rivojlangan va qudratli paytida yoki ularning eng qiyinchilik paytida ularga xaloskor sifatida.

Shu sababli ham yahudiy millatining mafkurasiga ko'ra qiyinchilik davri ham ularga yaxshilik olib keladi. Hattoki Isroil hududida shunday yahudiy diniy jamoalar borki ularning fikrida Isroil hududiga bomba tashlansa ham ular uchun yaxshi ularning fikrida yo'qotishlar yahudiy jamoasini oliy g'alaba tomon yetaklaydi.

Yaqin sharq mintaqasidagi siyosiy jarayonlarga dinlar katta ta'sir o'tkizadi dinlardagi qarshilik keyinchalik siyosiy qarshilikga aylanadi. Eron va Isroil mafkuraviy jihatidan ham dushman hisoblanadi. Chunki Eron shia va umuman musulmonlar orasida Imom mahdiga ishonish bor yahudiylar esa ularga qarshi dunyo so'ngida jang qiluvchi xalq sifatida qaraladi.

Yahudiylarning ba'zi bir guruhlari Mosiach (Masih) kelishini tezlashtirish mafkurasini ilgari surishadi ya'ni uning kelishiga yer yuzini tayyorlash kerak. Biz

aytishimiz mumkin bular faqat diniy, mifologik konspirologiya deb lekin ushbu diniy mafkuralarni Eron va Isroil munosabatlarini o‘rganish uchun tushunish kerak chunki diniy mafkuralar Eron va Isroil o‘rtasidagi aloqalar asosini tashkil etishadi.

Hozirgi kunda AQSHning Eron bilan urushi ham geosiyosiy jihatdan g’alati ko‘rinadi chunki bu urushdan AQSH zarar koradi deyarli hech qanday manfaat yo‘qdek. Chunki AQSH o‘z tarafdrolarini yo‘qotadi Yevropa, Sharqiy Osiyo va Yaqin Sharqdagi. Mamlakat ichida ham siyosiy notinchlik kuchayadi hukumatdagi siyosiy partiya bu urushdan katta zarar ko‘rmoqda kelgusidagi saylovchilar ishonchini yo‘qormoqda. Ushbu urushdan keyin Respublikachilar o‘zlarining obro‘larini tiklab olishlari qiyin kechadi.

Epshteyn ishini ham Eron urushiga bog’lash mukin Isroil ushbu fayllardan AQSH elitasiga qarshi manipulatsion vosita sifatida foydalanmoqda deyish mumkin. Elita ichida eng muhim narsa bu sodiqlik hisoblanadi shu sababli ham bazan ular turli konspirologik ishlarda birga sherik bo‘lishlari talab qilinadi sen elitada qolmoqchimisan bizga sherik bo‘lasan degan mafkura ko‘plab elitalarda bor mafkura hisoblanadi va shu sababli ham elitalar omon qolish uchun bir-birini himoya qilishadi.

Yahudiylar hayotida Ravinlar muhim o‘rin tutishadi ular siyosatchilarga ham ta’sir o‘tkazishadi. 20 asrdagi eng taniqli va muhim yahudiylardan biri bu Menachem Mendel Shnerson hisoblanadi bu odam Shabad Lubavitch tashkilotining eng asosiy Ravinlaridan biri edi.

Shabad Lubavitch tashkiloti Sharqiy Yevropada paydo bo‘lgan yahudiylik dini an’analarini saqlashga qaratilgan konservativ tashkilot edi. Ushbu tashkilot yahudiylik identitetini saqlash uchun harakat qiladi va xalqaro miqyosda faoliyat olib boradi. Ravin Shnerson va Netanyahuning dastlabki siyosiy olamga kirib kelgan paytidagi suhbati hozirgi urush va undagi diniy motivlarni tushuntiradi. Ushbu suhbatda Shnerson Netanyahudan Masih kelishiga oz muddat qolgani va Netanyahudan uning

kelishi uchun tayyorgarlik ko‘rayotganini so‘raydi va uni siyosiy faoliyatini qo‘llab quvvatlagn.

Sionizm Gitlerdan va Holokastdan foyda ko‘rgan deyish mumkin chunki yahudiylar davlati migratsiyasi uchun ular yahudiylar Yevropadan chiqib ketishlari kerak edi. Lekin bunga sabab yo‘q edi chunki Yevropa ular uchun xavfsiz va biznes uchun qulay edi lekin Gitler Germaniyasi Yahudiylarning Yevropadagi xavfsizligini yo‘qqa chiqardi. Yahudiylar tushundiki Yevropa ular uchun xavfsiz emas shu sababli ham Isroilga migratsiya oshdi.

Yahudiylikda eng muhim narsa bu qonni saqlash ya’ni boshqa millatga qiz berishmaydi va faqat yahudiy millatiga mansub fuqarolarga imtiyozlar koproq beriladi. Isroilning migratsiya va fuqarolik siyosati ham yahudiy diasporasini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan edi.

Islom esxatologiyasida esa markaziy figuralardan biri Iso alayhissalomning qaytishi va Mahdiyning chiqishi hisoblanadi. Ushbu qarashlarda yaxshilik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash, adolatning tiklanishi va oxir-oqibatda ilohiy hukmning amalga oshishi tasvirlanadi. Eron Shialik mafkurasida Mahdiy alohida o‘rin egallaydi va u zulmga qarshi kurashuvchi najotkor sifatida ko‘riladi. Shu bilan birga, bu esxatologik tasavvurlar ham aniq geosiyosiy davlatlarga to‘g’ridan-to‘g’ri bog’lanmagan bo‘lib, ular asosan diniy-metaforik darajada tushuniladi.

Xristianlik, xususan pravoslav an’anasida ham esxatologiya Masihning ikkinchi kelishi, oxirgi hukm va yovuzlikning mag’lubiyati bilan bog’liq. Tarix davomida “Moskva uchinchi Rim” degan g’oya paydo bo‘lgan bo‘lib, u Rossiyani pravoslav dunyosining markazi sifatida talqin qiladi. Bu g’oya tarixiy-madaniy va siyosiy kontekstda muhim bo‘lgan, biroq u rasmiy diniy aqidaning qat’iy qismi emas, balki ma’lum davrda shakllangan ideologik tushuncha hisoblanadi.

Esxatologik qarashlarning muhim jihatlaridan biri shundaki, ular ko‘pincha murakkab siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni soddalashtirib, ularni “yaxshilik va

yovuzlik", "biz va ular" kabi qarama-qarshi kategoriyalarga ajratadi. Bu esa siyosiy psixologiyada kuchli rol o'ynashi mumkin. Insonlar va jamiyatlar o'z identitetini aniqlashda, tahdidlarni baholashda va strategik qarorlar qabul qilishda bunday usuldan foydalanadi.

Geosiyosiy nuqtai nazardan qaraganda, hozirgi xalqaro tizimda AQSH, Isroil va Eron o'rtasidagi munosabatlar murakkab strategik raqobat va ittifoqlar tizimi bilan belgilanadi. Bu munosabatlarni tushunishda faqat iqtisodiy yoki harbiy omillar emas, balki tarixiy xotira, madaniy identitet va ayrim hollarda diniy narrativlar ham muhim rol o'ynaydi.

Lekin diniy esxatologiyani bevosita siyosiy reja sifatida talqin qilish unchalik ham to'g'ri bo'lmaydi va e'tibor talab qiladi, chunki ko'plab diniy g'oyalar aslida mafkuraviy yoki ma'naviy mazmunga ega bo'lib, ularni to'g'ridan-to'g'ri geosiyosiy ssenariy sifatida qabul qilish noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, esxatologiya va geosiyosat o'rtasidagi bog'liqlik murakkab va ko'p qatlamli hodisadir. Diniy qarashlar insonlarning dunyoqarashini shakllantiradi, siyosiy ongga ta'sir qiladi va ayrim hollarda davlatlararo munosabatlarda bilvosita rol o'ynaydi.

Ammo ularni bevosita real siyosiy konfliktlarning yagona sababi sifatida ko'rish ilmiy jihatdan to'liq asosli emas. Eng to'g'ri yondashuv diniy esxatologiyani uning asl diniy kontekstida tushunish va geosiyosiy jarayonlarni esa strategik, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birgalikda kompleks tarzda tahlil qilish mumkin.

Rossiyaning hozirgi kunda jahon siyosatida "Katexon" yani ushlab turuvchi roli mavjud bu Rossiyaning o'zini shunday deb hisoblashidir. Dugin fikriga ko'ra Rossiya jahon siyosatida tartibni ushlab turuvchi roliga agar Rossiya bo'lmasa tartibsizlik bo'ladi shu sababli ham Rossiya zamonaviy dunyodagi diniy qarama qarshiliklarda o'zini Xristianlik dinining himoyachisi deb hisoblaydi.

Rossiya Islom va Yahudiylikdagi diniy qarama qarshilik sharoitida o‘rtada sudya vazifasini o‘taydi shu sababli ham Rossiyaning musulmon olami va nasroniy davlatlar bilan aloqalari yaxshi deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. **Yangi O‘zbekiston strategiyasi.** – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Marks K., Engels F. **Nemis mafkurasi.** – Moskva: Politizdat, 1988.
3. Heywood A. **Political Ideologies: An Introduction.** – London: Palgrave Macmillan, 2017.
4. Eagleton T. **Ideology: An Introduction.** – London: Verso, 2007.
5. Giddens A. **Sociology.** – Cambridge: Polity Press, 2013.
6. Ball T., Dagger R. **Political Ideologies and the Democratic Ideal.** – New York: Pearson, 2014.
7. Ideology – Britannica Online Encyclopedia.
8. Ideology – Wikipedia.
9. Political legitimacy – Wikipedia.